SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIYA TRANSFERI VA UNIVERSITET–SANOAT HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Matchanova Ma'rifat Ikramovna
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tayanch doktoranti
marifatmatchanova@gmail.com
ORCID-(0009-0009-8449-3706)
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23210409

Annotatsiya. Ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etish innovatsion rivojlanishning muhim shartidir. Tezisda universitet, ilmiy markaz, sanoat korxonasi va investor hamkorligi, intellektual mulkni tijoratlashtirish hamda texnologiya transferi ofislarining roli ko'rib chiqiladi. Plastmassa sanoati uchun amaliy model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya transferi, universitet–sanoat hamkorligi, intellektual mulk, patent, tijoratlashtirish, startap, plastmassa sanoati.

Abstract. The rapid implementation of scientific developments into production is a crucial condition for innovative development. This paper examines the collaboration between universities, research centers, industrial enterprises, and investors, as well as the role of intellectual property commercialization and technology transfer offices. A practical model for the plastics industry is proposed.

Keywords: technology transfer, university-industry collaboration, intellectual property, patent, commercialization, startup, plastics industry.

Zamonaviy sanoatda raqobat ustunligi bilim va texnologiyaga tobora ko'proq bog'liq. Universitet va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida yaratilgan ishlanmalarni korxonalarga yetkazishning sustligi ilmiy salohiyatning iqtisodiy natijaga aylanishini cheklaydi. Shu sababli ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida doimiy texnologik transfer tizimini shakllantirish zarur. AQSH tajribasida universitet–biznes hamkorligi patentlash, litsenziyalash va startaplar orqali rivojlangan. Tadqiqotda institutsional, funksional va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Texnologiya transferi "ilmiy g'oya → ITTKI → patent/intellektual mulk → prototip → korxonada sinov → tijoratlashtirish → bozor" ketma-ketligida ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda texnologiya transferi ofislari korxonalar ehtiyojini aniqlash, ilmiy ishlanmalarni saralash, patentlash, litsenziyalash va investor topishni muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Plastmassa sanoatida polimer chiqindilarini qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalar, bioparchalanuvchi materiallar va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar bo'yicha qo'shma laboratoriya va pilot loyihalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

"Universitet – ilmiy markaz – sanoat korxonasi – investor" modelida universitet ilmiy yechimni ishlab chiqadi, korxona texnologik talab va sinov bazasini taqdim etadi, investor moliyalashtiradi, texnologiya transferi ofisi esa intellektual mulk, shartnoma, litsenziya va tijoratlashtirishni muvofiqlashtiradi. Bunday model ilmiy ishlanmaning ishlab chiqarishga yetib bormay qolishi xavfini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kamaytiradi. Polimer chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi laboratoriyada sinovdan o‘tkazilib, keyin korxonaning pilot liniyasida tekshiriladi. Ijobiy natijadan so‘ng texnologiya patent yoki litsenziya asosida joriy etiladi. Natijada ilmiy ishlanma real ishlab chiqarish samarasi, yangi mahsulot va qo‘shimcha daromad manbaiga aylanadi.

Universitet–sanoat hamkorligini doimiy innovatsion sheriklikka aylantirish texnologiya transferining samaradorligini oshiradi. TTO faoliyatini kuchaytirish, intellektual mulkni tijoratlashtirish va korxonalar buyurtmasi asosidagi tadqiqotlarni ko‘paytirish plastmassa sanoatining innovatsion salohiyatini oshiradi.

O‘zbekiston Amerika Qo‘shma Shtatlari innovatsion modelining moslashuvchan elementlarini milliy sharoitga tatbiq etsak, sanoat innovatsiyasi uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o‘sish va global raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoatning innovatsion rivojlanishi milliy raqobatbardoshlik, iqtisodiy barqarorlik va texnologik mustaqillikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilmiy-tadqiqot faoliyati, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va innovatsion muhit sanoat o‘sishining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya va Germaniyada ITTKI xarajatlari yuqori bo‘lib, innovatsiyalar asosan xususiy sektor tomonidan moliyalashtiriladi. Xitoyda davlat yetakchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda esa ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan mablag‘lar yetarli emasligi sanoat innovatsiyasini cheklab kelmoqda. Yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoatning innovatsion rivojlanishi uzoq muddatli strategik siyosatni talab qiladi. O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l — Amerika Qo‘shma Shtatlari innovatsion modellari elementlarini uyg‘unlashtirish orqali milliy sanoatni modernizatsiya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD. Oslo Manual 2018. OECD Publishing, 2018.
2. WIPO. Global Innovation Index 2025.
3. Bayh-Dole Act, 35 U.S.C. §§200–212.
4. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation and the Triple Helix. Research Policy, 2000.
5. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. Pinter Publishers, 1987.
6. Abdurazakov M., Matchanov T., Matchanova M. O ‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SAMARALI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJ TAJRIBASI) //Универсальная индексная библиотека прикладных наук в современном мире: проблемы и решения. – 2025. – Т. 4. – №. 16. – С. 104-106.
7. Ikramovna M. M. et al. RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO ‘LLARI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2026. – Т. 4. – №. 42. – С. 38-45.
8. Innovation Science and Technology jurnali. Boshqaruv tizimlarining innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'siri: O'zbekiston misolida (2024–2025-yillar GII ma'lumotlari asosida). — Issue 11, 2025. URL: https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/download/335/302

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

9. Ikramovna M. M. et al. TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI ILG 'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI //Научный Импульс. – 2026. – Т. 4. – №. 41. – С. 240-249.
10. Matchanovich M. T., Ikramovna M. M. DIGITALIZATION OF BANKING SERVICES IN THE BANKING SYSTEM BANK TIZIMIDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 3. – №. 32. – С. 47-51.
11. Ikramovna M. M. et al. RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO 'LLARI //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2026. – Т. 4. – №. 42. – С. 38-45
12. Sobirovich A. A. et al. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASI VA ULARNING MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2025. – Т. 8. – №. 7. – С. 15-23.
13. Ikramovna M. M., Matchanovich M. T. PLASTMASSA ISHLAB CHIQARISHDA INNOVATSION SALOHIYAT MAZMUNI VA UNING ISHLASH MEXANIZMI //MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2026. – Т. 3. – №. 1. – С. 77-85.
14. Ikramovna M. M. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O 'RNI //MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 379-384.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.